Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VII SEMESTR BO'YICHA MUSTAQIL ISH MAVZULARI VA SHAKLLARI

№	Mavzu nomi	TMI shakli	Soati
1.	Konflikt sotsial fenomen sifatida	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
2.	Sotsial konfliktlarni tadqiq etish metodlari	Uy vazifa sifatida berilgan topshiriqlarni bajarish	6
3.	Sotsial konfliktlar dinamikasi va motivatsiyasi	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	4
4.	Guruxlararo konfliktlarni tadqiq etish metodlari	Ma'ruza mashg'ulotlarini takrorlash, konspekt qilish, adabiyotlar bilan tanishish	4
5.	Oiladagi konfliktlarni tahlil qilish va boshqarish muammolari	O'zbekiston va chet el olimlarining Scopus yoki Elsevier tizimlari asosida mavzuga oid maqolalar topish va o'rganish	4
6.	Konfliktida shaxsning samarali muloqoti va ratsional hatti-harakat texnologiyasi	Mavzuni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish	4
7.	Tashkilotlardagi konfliktlar	Mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash	4
8.	Siyosiy konfliktlarning asosiy turlari: manfaat, qadriyatlar.o'xshatish va tenglashtirish asosidagi konfliktlar	Seminar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish	4
9.	Etnosiyosiy konfliktlarni o'ziga xos jixatlari	Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, dars ishlanmalarini tayyorlash	4
10.	Xalqaro siyosatda xokimiyat masalasi va uning mohiyati.	nazariy bilimlar asosida chizmalar, diagrammalar tayyorlash	4
11.	«Nol mikdorli», «Nol mikdorsiz» konfliktlarning mohiyati.	Amaliy mashg'ulotda interfaol usullardan foydalanish	4
12.	Boshqaruv tizimining tuzilishi va tarkibiga nisbatan konfliktlar tipologiyasi.	amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish	4
13.	Konfliktlarni bartaraf etish: modellari, uslublari va metodlari.	Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilish (respublika gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalarda ko'tarilgan muammoning yechimi bo'yicha ham o'z fikrini bildirish	4
14.	Siyosiy muzokaralar utkazish texnologiyasi.	Mavzu bo'yicha internet va axborot manbalaridan ma'lumotlari to'plash	4
15	Konfliktologik tadqiqot dasturi va uning mohiyati.	Internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash	4
Jami:			62

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“Ijtimoiy fanlar” kafedra

“Konflikt sotsiologiyasi” FANIDAN

GLOSSARIY

SOTSIOLOGIK ATAMALAR

AVTORITARIZM (lot. autoritas-hokimiyat) boshqaruvning tazyiiqiy uslublar bilan ifodalanuvchi davlat tizimi.

ADAPTATSIYA (lot. adaptatio - moslashtirish) - insonning yanga faoliyat sharoitlariga, ma'lum bir ijtimoiy guruhlardagi munosabatlar tizimiga moslashuvi.

ANKETA (fr. enquete)- o'z mazmun va shakliga ko'ra tartiblangan savollar va mulohazalar bayon qilingan so'rov varaqasi.

ANKETA SO'ROVI - sotsiologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan so'rovlarning asosiy xilidan biri.

AN'ANALAR - uzoq vaqt davomida avloddan avlodga o'tkazib beriladigan va ma'lum jamiyatlarda, ijtimoiy guruhlarda saqlanib boradigan ijtimoiy va madaniy meros elementi.

ASOTSIAL XULQ (yunoncha - inkor va socialis - ijtimoiy)-alohida olingan shaxs yoki odamlarning ijtimoiy-salbiy sabablar asosida yuzaga keladigan ijtimoiy hayoti shakli bo'lib, bundai hatti-harakat boshqa shaxs, ijtimoiy guruh va hatto jamiyatga noqulayliklar yoki zarar etkazishi mumkin (masalan, ichkilikbozlik yoki jinoyatchilik).

ATRIBUTSIYA (lot. attributum - berilgan) - ijtimoiy ob'ektlarga (inson, guruh, ijtimoiy birliklar) xos bo'lgan lekin ko'z ilg'amaydigan xususiyatlar.

AXBOROTNI KODLASHTIRISH - 1) empirik ma'lumotlarni zarur talablar asosida qayga ishlash va tahlil qilishga tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar yig'indisi; 2) sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash bosqichining birinchi davri (fazasi).

AXLOQIY-MA'NAVIY ME'YOR - to'g'ri yoki noto'g'ri xulq-atvor va hatti-harakat haqidagi g'oyalar va qarashlar tizimi bo'lib, u bir xil harakatlarni bajarishni talab etadi va boshqalarini taqiqlaydi.

AHLOQ - u yoki bu ijtimoiy guruhlar va jamiyatdaga ijtimoiy munosabatlarni nazorat qilish va tartibga solish vazifasini bajaruvchi ijtimoiy institut, me'yorlar, baholar, xulq-atvor namunalari tizimi.

BANDLIK (aholining bandligi) - aholining ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilganligini ifodaluvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya.

BASHORAT (prognoz) - ma'lum bir dalillarga asoslangan holda biror-bir jarayon rivojlanishi yo'nalishlarini oldindan ilmiy tarzda ko'ra bilish. . .

BEGONALASHUV - odamlar, ijtimoiy guruhlarning bir-biri bilan yonma-yon yashashlariga qaramay, ularning munosabatlaridagi azaliy birlikning buzilishi va unga olib keladigan jarayon.

BIRLAMCHI GURUH - asosan individning birlamchi ijgimoilaashuvi jarayonini va uning boshqa guruhlarga tortshshshini ta'minlovchi kichik guruhning (oila, o'smirlar guruhi).

BOSHQARUV-tashkilotning maxsus organining funksiyasi bo'lib eng kam vositalar (vaqt, kuch, zahiralalar) sarflab eng yuqori natijaga erishish bo'yicha aniq tashkil etilgan faoliyatdir.

BYUROKRATIYA - to'rachilik, o'z faoliyatiga ko'ra rollarning pog'onali tarzda (yuqoridan quyiga) tartibiga va qat'iy qoida-marosimlarga asoslanuvchi boshqaruvning ko'rinishi.

BO'SH VAQT - inson, ijtimoiy guruh va umuman jamiyatda zaruriy ravishda sarflanadigan vaqt zaxiralaridan ortib qoladigan, ya'ni ish vaqtidan tashqaridagi vaqt qismi.

VERBAL XUJJATLAR TAHLILI - hujjat manbalaridan axborot olish uslubi.

VERIFIKATSIYA (lot. uegiv - xaqqoniy va Gasyu - qilmoq) - ilmiy xulosalarning haqqoniyligini empirik tekshirish orqali o'rnatish jarayonini ifodalovchi metodoloshk tushuncha. Verifikatsiya fanning nazariy xulosalarini kuzatilayotgan ob'ekt, tadqiqot bilan taqqoslash orqali tekshirib kurish, tajribada tasdiqlash bilan ifodalanadi.

GIPOTEZA - ilmiy taxmin, bashorat. Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishdan oldin bo'lajak natijalarni qanday bo'lishini empirik tekshirish uchun qilinuvchi ilmiy taxmin.

GURUHIY BIRDAMLIK - shaxslararo aloqalarning guruh hayotiy faoliyatining vorisiyligini va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi mustahkamligi.

GURUHIY MUTANOSIBLIK - guruh hamjixatliganing ijtimoiy-ruhiy ko'rsatgichi bo'lib, unda guruh a'zolarining o'zaro nizolarsiz muomala qilishi va muvofiqlik imkoniyatlari aks etadi.

GURUH ME'YORLARI - xar bir guruh joriy etgan amaldagi tartib-qoida va talablar majmui bo'lib, u guruh a'zolari xatgi-harakatlarini tashkil etishda, ularning o'zaro munosabatlari, harakatlari va muomalasida muhim ahamiyat kasb etadi.

GURUH TUZILMASI - o'zaro faoliyat qatnashchilarining mustahkam ravishda qaytadan vujudga kelishining tartiblangan tizimi.

DALA TADQIQOTI - 1) tor ma'noda: joylardagi (uyda, korxonalarda va h.k) o'tkaziladigan tadqiqot; 2) keng ma'noda -tadqiqot ob'ektini tabiiy «dala» sharoitlarida, uning kundalik hayotini ijtimoiy miqyosda o'rganish.

DEVIANT HULQ-ATVOR (lot. deviatio - og'ish) - ijtimoiy normativlar va me'yorlardan og'ib ketuvchi hatgi-harakat.

DEMOGRAFIYA - (grekcha demos - xalq hamda grapho yozaman: xalq haqidagi yozuvlar), - aholishunoslik to'g'risidagi fan. Demografiya aholining barcha tabaqa va guruhlarini son va sifat jihatidan o'rganadi. Bu erda asosan tug'ilish, o'lim, nikoh, ajrim, migratsiya jarayonlari hamda ularga ta'sir qiluvchi omillar o'rganiladi.

DIADA - ikki kishidan iborat guruh.

ETAKCHI (ingl. leader-boshlovchi, rahbar) guruhning xal qiluvchi vaziyatlarda uning uchun mas'uliyatli qarorlar qabul qilish huquqini tan olgan a'zosi; biror bir jamoada katta obro' e'tibor va ta'sirga ega bo'lgan shaxs; siyosiy partiya. jamoat tashkiloti va x.k. ning boshlig'i, rahbari.

ETAKCHILIK -individning hatti-harakatining guruh etakchisi roliga mos keluvchi qobiliyatlari, sifatlarning namoyon bo'lishi. Etakchi xili esa ijtimoiy tuzum tabiati guruh xususiyati va muayyan tarixiy vaziyatga bog'liq.

YOSHLAR ijtimoiy yetuklik, katta hayotga kirib borish va unga moslashib borish kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jamiyatning ijtimoiy demografik guruhi.

JAMIYAT –insonlarning barcha o'zaro harakatlari uslublari va bir-biridan xar tomonlama bog'likligi ifodalanadigan birlashmalarning yig'indisi.

JAMOA –umumiy doimiy yashash joyiga ega bo'lgan kundalik hayotlarida bir-biriga bog'liq bo'lgan va umumiy iqtisodiy hamda ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun faoliyat ko'rsatuvchi insonlar majmuasi.

ZARDUSHTIYLIK- xorazmda eramizdan avvalgi VII asrda paydo bo'lgan yakka xudolikka asoslangan din.

IERARXIYA (yunon. hieros - mukaddas va arche - hokimiyat) ma'lum bir yaxlitlik qismlari yoki elementlarining yuqoridan quyiga qarab joylashish tartibi. Sotsiologiyada bu tushuncha jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini, ayniqsa byurokратиyani belgilashda ko'llaniladi.

INDETERMINIZM-(lot. in inkorni ifodolovchi sifat-dosh va determinizm) - tabiiy va ijtimoiy hodisalarning sababli aloqadorligini inkor etuvchi falsafiy ta'limot.

INDIVID (lot. individuum - takrorlanmas) - odamzodning vakili, o'ziga xos takrorlanmas xususiyatlar egasi hisoblanmish odam.

INDIKATOR (lot. indicator - ko'rsatkich) - ob'ektning o'rgansa va o'lchasa bo'ladigan xususiyati.

INNOVATSIYA - ijtimoiy amaliyotda sezilarli o'zgarishlar tug'diradigan turli xil yangiliklar yaratish va tadbiiq etish.

INTERVYU (ingl. interview) - sotsiologik tadqiqotda qo'llaniladigan uslub - maqsadli suhbat.

KATTA GURUH - katta miqdordagi a'zolariga ega bo'lgan, turli aloqalar xillariga ega bo'lgan ijtimoiy guruh.

KONTENT-TAHLIL - sotsiologik axborot mazmunini xujjatlar asosida miqdoriy va sifat jihatida o'rganish uslubi.

KORRELYASIYALI TAHLIL-o'rganilayotgan ob'ektlar belgilari orasidagi statistik aloqalarni o'rganishda qo'llaniladigan matematik tartib-qoidalar.

LATENTLIK (lot. lateens yashirin) ko'zga tashlanmaydigan, yashirin jarayon (masalan, sud statistikasida va amaliyotida qayd qilinmagan yashirin jinoyatchilik)

LEGITIMLASHTIRISH (lot. legitimus –qonuniy) biror bir qonun, vakolatning qonuniyligini tan olish yoki tasdiqlash. Legitimashtirish biror bir ijtimoiy muassasaning qonuniy kuchga ega bo'lishida ifodalanadi.

MADANIYAT (lot.kultura - qayta ishlash) - inson jamiyati yaratgan va jamiyat rivojining ma'lum darajasini ifodalovchi moddiy va ma'naviy mahsulotlar, qadriyatlar majmui

MAKROSOTSILOGIYA (yunon. makros - uzun, katta sotsiologaya) - katga ijtimoiy guruhlar va tizimlarni (masalan, jamiyat, sivilizatsiya va h.k.) jarayonlarni harakatlarni va hodisalarni, shuningdek guruhlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqot yo'nalishi.

MARGINAL SHAXS - (fr. marginal - chekka, chegara) -ijtimoiy jihatdan normal holatda bo'lmagan shaxs. Bunday shaxs ikki va undan ko'p madaniy

tizimlar o'rtasidagi chegarada oraliq holatini egallaydi, qisman har biriga singgan bo'ladi, ammo xech biriga to'liq mansub bo'lmaydi.

MATRITSA (lot. matrix - bachadon) - sotsiologiyada: jadval (matritsa) ko'rinishidagi modellar yordamida ijtimoiy tuzilmalarni qayd etish.

MENTALITET (lot. mens - aql, tafakkur) - individ yoki ijtimoiy guruhning, millatning o'ziga xos tafakkur tarzi, voqelikni ma'lum bir tarzda tushunishi va birgalikda harakat qilishga tayyorligi va moyilligi.

MIGRATSIYA (lot. migratio - ko'chib o'tish) - individlar yoki ijtimoiy guruhlarning doimiy yashash joylarini o'zgartirish jarayoni bo'lib, u boshqa jo'g'rofiy hudud yoki mamlakatga ko'chib o'tishda ifodalanadi.

MIKROSOTSIOLOGIYA (yunon. micros - kichkina va sotsiologiya) - sotsiologiyada nisbatan katta bo'lmagan ijtimoiy tizimlardagi ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni taxlil qilishga qaratilgan, alohida olingan hodisalarning mikrodarajadagi jarayonlar bilan aloqasini empirik tasvirlash bilan chegaralanadigan yo'nalish.

MITRAIZM - xudo Mitraga sajda qilish bilan bog'liq bo'lgan din. Eramizdan oldingi so'nggi asrlarda Eronda paydo bo'lib Rim imperiyasi va old Osiyoda tarqalgan.

NARKOMANIYA- (yunon. narke-karaxtlik, mania-extiros) narkotik moddalarning iste'mol qilish natijasida shaxsning ruxiy va ijtimoiy voyaga etishning senilashuvi va undan kelib chiqadigan muammolar.

SOTSIAL JARAYON - individ, ijtimoiy institutlar guruhlarning ijtimoiy holati yoki turmush tarzining o'zgarishi yo'nalishini ifodalovchi barqaror harakatlar o'zgarishlar, hatti-harakatlari holatlarining majmuasi.

SOTSIAL INFRASTRUKTURA (lot. infra - tagida va structura - tuzilma) - ijtimoiy hayotning barcha sohalarida shu jumladan ijtimoiy-maishiy sohada inson hayoti va faoliyatini oqilona tashkil etishni ta'minlovchi moddiy elementlarning mustahkam majmuasi.

SOTSIAL INSTITUT - (intstitut - lat. institutum -kurilma) - g'arb sotsiologiyasida, ayniqsa strukturaviy funksionalizm da ko'p ishlatiladigan tushuncha. Sotsial institut inson faoliyatini boshqaruvchi va sotsial tizim yasovchi rollar va statuslar tizimini yaratuvchi turli rasmiy va norasmiy qoidalar, tomoyillar, me'yorlar, qurilmalarning, qatii majmuini anglatadi. Sotsial institut sotsial guruh sotsial tashkilotlardan farq qiladi.

SOTSIALIZATSIYA (IJTIMOIYLASHUV) - individ tomonidan mavjud ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va bilimlar tizimini o'zlashtirish jarayoni.

SOTSIAL MAQOM (STATUS) (lot. status - holat) individning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi holati ahvoli.

SOTSIAL MOSLASHUV (ADAPTATSIYA) - shaxs yoki guruhning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati turi ijtimoiy moslashuv individ yoki guruhning o'zi uchun yangi bo'lgan ijtimoiy muhitni o'zlashtirish jarayonida namoyon bo'ladi.

SOTSIAL NAZORAT - jamiyatning sog'lom ijtimoiy tartibni ta'minlash maqsadida individ hatti-harakati va xulq-atvoriga maqsadli ta'siri.

SOTSIAL XIZMAT - korxonalar, muassasa va tashkilotning xizmatchilar va ishchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqati mehnat jamoasini boshqarish sohasi.

SO‘ROV - fransuz tilidan olingan bo‘lib, biron bir narsani aniqlash degan ma‘noni anglatadi. Sotsiologiyada so‘rash usullari muayyan aholi guruhlariga savollar vositasida murojaat qilish orqali birlamchi ma‘lumotlarni to‘plash ma‘nosini anglatadi. So‘rash usullarining yozma (anketa), og‘zaki (intervyu) hamda sirtidan (pochta, telefon va matbuot orqali) ma‘lumotlar to‘plash shakllari mavjud.

SOTSIOMETRIYA - kichik guruhlar, jamoalar va tashkilotlardagi shaxslararo munosabatlar tizimini mahsus o‘rganish usulidir.

STATISTIKA - ijtimoiy voqea va xodisalarning miqdoriy jihatlarini mahsus o‘rganuvchi fan.

STATUS - 1. Muayyan tizim, targ‘ibot, hamda ierarxiyaning holati, darajasi va mavqei. 2. Biror shaxs, davlat organi yoki xalqaro tashkilotning ijtimoiy mavqeini ifodalovchi burch va majburiyatlar majmui.

STRATIFIKATSIYA - jamiyatning tuzilmasi va alohida qatlamlarini, ijtimoiy tabaqalanish belgilari tizimini, ifodalovchi sotsiologik tushuncha.

SO‘ROV - sotsiologik, psixologik, demografik va boshqa tadqiqotlarda qo‘llaniladigan birlamchi verbal (og‘zaki) axborot yig‘ash uslubi.

SO‘FIYLIK - islomdagi diniy falsafiy oqim. 8-4-asrlarga paydo bo‘lgan va Arab xalifaligida tarqalgan. So‘fiylik yagona Ollohni tash olishni va unga intilishni, faqat unga muhabbatni targ‘ib qiladi hamda qolgan barcha narsalarni Ollohning aksi yoki sifatleri deb xisoblaydilar. Imom G‘azzoliy asos solgan sufizm, keyinchalik turli tariqatlarga bo‘linib ketdi. Kubroviya, YAssaviya hamda eng ko‘p tarqalgan Naqshbandiya tariqatlari Markaziy Osiyoda paydo bo‘lgan.

TANLASH - 1) sotsiologik tadqiqotning bevosita o‘rganilishi kerak bo‘lgan ob‘ekti elementlarining majmuasi; 2) ob‘ekt elementlarini, ommaviy sotsiologik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan kuzatuv va o‘rganish birliklarini saralab olish uslublari, usullari va tartib-qoidalarining majmuasi.

TANLASH (JARAYON SIFATIDA) – tadqiqotning butun bir ob‘ektini (mamlakatning butun axolisi, barcha oilalar, maktablar) tashkil qiluvchi ko‘pgina birliklardan (odamlar, oilalar va h.k.) ma‘lum bir birliklar sonini tanlab olish.

TARBIYA - jamiyatda amal qilayotgan me‘yorlarga mos ravishda shaxsni maqsadli tizmiy shakllantirish jarayoni.

URBANIZATSIYA-(lot.urbanis-shahar) jamiyat rivojida shaharlar mavqei va rolining oshib ketish jarayoni.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektori

_____ D.Xolmatov

“ _____ ” _____ 2024-yil

**KONFLIKTLAR SOTSILOGIYASI
FANINING**

O‘QUV DASTURI

4-kurs uchun

Bilim sohasi:	200000 –Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta’lim sohasi:	210000 – Sotsiologiya va psixologiya
Ta’lim yo‘nalishi:	5210100–Sotsiologiya

Namangan-2024

Fan/modul kodi KOSB404		O'quv yili 2024/2025	Semestr 7	ECTS-Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Konfliktlar sotsiologiyasi	60	60	120

I. FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan maqsad - Jamiyat va sotsial munosabatlar tizimida konfliktlarning o'rnini va rolini ilmiy-tahliliy jixatdan o'rganib, ularga holisona baho berish, sotsial konfliktlarni xususiyatlaridan kelib chiqib ularni boshqarish, oldini olishning yoki bartaraf etish imkoniyatlarining nazariy-kontseptual, shuningdek, amaliy jixatlarini talabalarga o'rgatish asosiy maqsaddir.

Fanning vazifasi -

- konfliktlar haqidagi ta'limotlarning rivojlanish dinamikasini o'rganish;
- konfliktologiya va jamiyatning o'zaro faoliyatini tahlil qilish;
- sotsial konfliktlarni tahlil qilish, hamda ularga tashxis qo'yish ko'nikmalarini shakllantirish;
- zo'rlik yoki urush konfliktlarini hal qilish usuli sifatida qarash stereotiplarini kamaytirish;
- konfliktlarda chorasiz xolatlariga tushib qolgan insonlar, tashkilotlar qanday choralar, tadbirlar, ko'rishlari mumkinligi to'g'risida nazariy-amaliy bilimlar berish.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Konfliktli sotsiologiyasi predmeti va asosiy tushunchalari

Konfliktlar sotsiologiyasi predmeti. Konfliktlar sotsiologiyasining asosiy tushunchalari. Konfliktlarni ta'riflashning kategorial chizmasi. Konfliktlar sotsiologiyasining nazariy-tahliliy va empirik kategoriyalari va tushunchalari: raqiblik, raqobat, to'qnashuv, norozilik, kurash, kelishuv, munozara, shartnoma, majburlash, murosa, konstruktivlik va destruktivlik va boshqalar. Konfliktlar sotsiologiyasi asosiy tushunchalarining operatsionalizatsiyasi. Konfliktlar sotsiologiyasining konfliktologiya va konfliktni o'rganuvchi boshqa sohalar bilan o'zaro nisbati.

2-mavzu. Konfliktlarni o'rganishga asosiy yondashuvlar

K. Marksning ijtimoiy-sinfiy konflikt kontseptsiyasi. R. Darendorfning konfliktlar dialektik kontseptsiyasi. G. Zimmel kontseptsiyasida konfliktni funktsionalistik tushuntirish. Konfliktning pozitivistik funktsiyasi. T. Parsonsning strukturaviy-funksional kontseptsiyasida konfliktlar jamiyatning disfunktsional holati sifatida. L. Kozerning pozitiv-funksional konflikt modeli.

3-mavzu. Konfliktlarning xarakatlantiruvchi kuchlari va sabablari

Konfliktni o'rganishning tahliliy chizmasi. Konflikt kuchayishining iqtisodiy, siyosiy va madaniy soxasi. Sabablarning asosiy nazariyasi. Shaxsning asosiy motivatsion nazariyalari. Mazmundor (A. Maslou, D. Mak. Klelland, F. Gertsberg, X.A.Myurrey). Protsessual (Porter-Loulerning kutish nazariyasi, adolatlilik nazariyasi). Motivatsiya va faoliyat (Djon Ye. Barbuto, Richard V. Skoll, E. Desi).

4-mavzu. Konfliktlarni o'rganishning empirik xususiyatlari

Konfliktlarni o'rganishning umumiy tamoyillari, usullari va uslublari. Tizimli va tarixiy-genetik yondashuvlar, ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya, psixologiya, psixoanaliz usullari. Konfliktlarni o'rganishning maxsus usullari: konfliktologik tashxis va ekspertiza, vaziyatli usul. Konfliktlarni fanlararo tadqiq qilish. Konfliktlarni sotsiologik o'rganishning o'ziga xosligi. Sotsial konfliktni majmuaviy tashxislash. Konfliktlarning qiyosiy taxlili va ekspertizasi. Sotsial konfliktni tashxislash metodikasi.

5-mavzu. Sotsial konfliktlar

Sotsial konfliktlarning ichki va tashqi sharoitlari. Sotsial konfliktning formulasi. Sotsial konfliktning umumiy strukturasi. Sotsial konsensus strukturasi. Sotsial konfliktlarning funktsiyasi. Latent konflikt va uning namoyon bo'lishi. Yasama konflikt. Konfliktning norozilik shakllari. Zulm va agressiya. Sotsial konflikt va konsensusning darajalari va ifodalash shakllari. Shaxslararo konfliktlar va konsensus.

6-mavzu. Jamiyat turli sohalarida konfliktlarning o'ziga xosligi

Madaniyatlararo konfliktlar. Submadaniyatlarining farqlari va moslik chegaralari. Kontrmadaniyat. Submadaniyatlar konfliktlari. Raqobat va konflikt. Iqtisodiy sohada konfliktlar. Mehnat konfliktlari. Iqtisodiy va mehnat konfliktlarini hal qilish usullari. Siyosiy sohada konfliktlar. Siyosiy konfliktlarning predmeti. Siyosiy elitalar konfliktlari. Konfliktlarning byurokratlashuvi. Sotsial konfliktlarning siyosiy lashuvi. Etnosiyosiy konfliktlar. Urush. Siyosiy konfliktlar va zo'rvonlik. Diniy konfliktlar.

7-mavzu. Yoshlar konfliktlari

Yoshlar orasida konfliktlarni aniqlash. Yoshlar konfliktlarining predmeti. Yoshlar konfliktlarining klassifikatsiyasi. Guruhlararo (avlodlararo) konfliktlar. O'smirlik davrining muammolari. Avlodlararo munosabatlar.

Avlodlararo munosabatlar konfliktlarining o'ziga xos jihatlari. Avlodlararo konfliktlarning nazariyasi. Ta'lim muassasalarida konfliktlar. «O'qituvchi-talaba», «ota-ona-talaba» va «talaba-talaba» konfliktlari. Avlodlararo konfliktlarning oqibatlarini. Yoshlari guruhdori orasida konfliktlar. Yoshlar guruhlari tasnifi. Yoshlar guruhlarning zamonaviy xolati. Yoshlar guruhdori a'zolarining tipologiyasi. Guruhlararo konfliktlar sabablari. Harbiy xizmatda shaxslararo konfliktlar. Harbiy xizmatda konfliktlarning ishlash mexanizmi turlari. Qadriyatlar shaxslararo konfliktlarning asosi sifatida.

8-mavzu. Global konfliktlar

Global konfliktlar tushunchasi, mezonlari va sabablari. Global konfliktlar turlari. Jamiyat va tabiat o'rtasidagi konfliktlar, resurslar tugashi muammosi, urush va tinchlik muammolari, demografik muammolar, mamlakatlar taraqqiyotida disbalans muammosi. Rim Klubi va uning global muammolarni hal etishdagi roli.

9-mavzu. Xududiy konfliktlar

Xududiy konfliktlar, ular sub'ektlari tushunchasi, mezonlari va sabablari. Xududiy konfliktlar klassifikatsiyasi. Milliy manfaatlar davlatlararo konfliktlar predmeti va sababi sifatida. Etnik konfliktlar. Davlat ichidagi konfliktlar.

10-mavzu. Sotsial konfliktlarni boshqarish

Konfliktlarni boshqarish amaliyotining vujudga kelishi. Konfliktlarni boshqarishning asosiy tushunchalari: profilaktika, tartibga solish, xal qilish, kelishuv. L.Krisberg va R.Darendorf bo'yicha konfliktlarni boshqarishning omillari. Konfliktlarning konstruktiv va dekonstruktiv rivojlanishi. Konflikt ishtirokchilarining tavsifi va ularning konfliktni boshqarishga ta'siri. Konfliktlarni tartibga solish usullari. Kuch ishlatish usuli bilan konfliktlarni bartaraf qilish va ushbu usulni qo'llashga majbur etuvchi omillar.

11-mavzu. Muzokaralar konfliktlarni bartaraf etish usuli sifatida

Muzokaralar umumiy strategiyasi va modellari. «O'zaro manfaatlar», «yon berish-yaqinlashish» modellari. R. Fisher va U. Yurining muzokaralarni printsiptial olib borish usuli. Konfliktlarni hal etishda uchinchi taraf ishtiroki, arbitraj, mediatorlik. Mediatorlik strategiyasi va texnikasi. Muzokaralar ishtirokchisiga talablar va psixologik muhitni tartibga solish. Muzokaralar uslubi (shiddatli, mo'tadil, savdo, xamkorlik). Muzokaralarni tashkil etish.

II.2. MA'RUZA MAVZULARINI TAQSIMLANISHI

№	Mavzular	Soati
7-semestr		
1	Konflikt sotsiologiyasi predmeti va asosiy tushunchalari	2
2	Konfliktlarni o'rganishga asosiy yondashuvlar	4

3	Konfliktlarning harakatlantiruvchi kuchlari va sabablari	2
4	Konfliktlarni o'rganishning empirik xususiyatlari	2
5	Sotsial konfliktlar	2
6	Jamiyat turli sohalarida konfliktlarning o'ziga xosligi	4
7	Yoshlar konfliktlari	2
8	Global konfliktlar	4
9	Xududiy konfliktlar	2
10	Sotsial konfliktlarni boshqarish	4
11	Muzokaralar konfliktlarni bartaraf etish usuli sifatida	2
	Jami:	30 soat
	Umumiy soat:	30 soat

III. SEMINAR MASHG'ULOTI MAVZULARI

1-mavzu. Konfliktir sotsiologiyasi predmeti va asosiy tushunchalari

Konfliktlar sotsiologiyasi predmeti. Konfliktlar sotsiologiyasining asosiy tushunchalari. Konfliktlarni ta'riflashning kategorial chizmasi. Konfliktlar sotsiologiyasining nazariy-tahliliy va empirik kategoriyalari va tushunchalari: raqiblik, raqobat, to'qnashuv, norozilik, kurash, kelishuv, munozara, shartnoma, majburlash, murosa, konstruktivlik va destruktivlik va boshqalar. Konfliktlar sotsiologiyasi asosiy tushunchalarining operatsionalizatsiyasi. Konfliktlar sotsiologiyasining konfliktologiya va konfliktni o'rganuvchi boshqa sohalar bilan o'zaro nisbati.

2-mavzu. Konfliktlarni o'rganishga asosiy yondashuvlar

K. Marksning ijtimoiy-sinfy konflikt kontseptsiyasi. R. Darendorfning konfliktlar dialektik kontseptsiyasi. G. Zimmel kontseptsiyasida konfliktni funktsionalistik tushuntirish. Konfliktning pozitivistik funktsiyasi. T. Parsonsning strukturaviy-funktsional kontseptsiyasida konfliktlar jamiyatning disfunktsional holati sifatida. L. Kozerning pozitiv-funktsional konflikt modeli.

3-mavzu. Konfliktlarning harakatlantiruvchi kuchlari va sabablari

Konfliktni o'rganishning tahliliy chizmasi. Konflikt kuchayishining iqtisodiy, siyosiy va madaniy soxasi. Sabablarning asosiy nazariyasi. Shaxsning asosiy motivatsion nazariyalari. Mazmundor (A. Maslou, D. Mak. Klelland, F. Gertsberg, X.A.Myurrey). Protsessual (Porter-Loulerning kutish nazariyasi, adolatlilik nazariyasi). Motivatsiya va faoliyat (Djon Ye. Barbuto, Richard V. Skoll, E. Desi).

4-mavzu. Konfliktlarni o'rganishning empirik xususiyatlari

Konfliktlarni o'rganishning umumiy tamoyillari, usullari va uslublari. Tizimli va tarixiy-genetik yondashuvlar, ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya, psixologiya, psixoanaliz usullari. Konfliktlarni o'rganishning maxsus

usullari: konfliktologik tashxis va ekspertiza, vaziyatli usul. Konfliktlarni fanlararo tadqiq qilish. Konfliktlarni sotsiologik o'rganishning o'ziga xosligi. Sotsial konfliktni majmuaviy tashxislash. Konfliktlarning qiyosiy taxlili va ekspertizasi. Sotsial konfliktni tashxislash metodikasi.

5-mavzu. Sotsial konfliktlar

Sotsial konfliktlarning ichki va tashqi sharoitlari. Sotsial konfliktning formulasi. Sotsial konfliktning umumiy strukturasi. Sotsial konsensus strukturasi. Sotsial konfliktlarning funktsiyasi. Latent konflikt va uning namoyon bo'lishi. Yasama konflikt. Konfliktning norozilik shakllari. Zulm va agressiya. Sotsial konflikt va konsensusning darajalari va ifodalash shakllari. Shaxslararo konfliktlar va konsensus.

6-mavzu. Jamiyat turli sohalarida konfliktlarning o'ziga xosligi

Madaniyatlararo konfliktlar. Submadaniyatlarining farqlari va moslik chegaralari. Kontrmadaniyat. Submadaniyatlar konfliktlari. Raqobat va konflikt. Iqtisodiy sohada konfliktlar. Mehnat konfliktlari. Iqtisodiy va mehnat konfliktlarini hal qilish usullari. Siyosiy sohada konfliktlar. Siyosiy konfliktlarning predmeti. Siyosiy elitalar konfliktlari. Konfliktlarning byurokratlashuvi. Sotsial konfliktlarning siyosiy lashuvi. Etnosiyosiy konfliktlar. Urush. Siyosiy konfliktlar va zo'ra vonlik. Diniy konfliktlar.

7-mavzu. Yoshlar konfliktlari

Yoshlar orasida konfliktlarni aniqlash. Yoshlar konfliktlarining predmeti. Yoshlar konfliktlarining klassifikatsiyasi. Guruhlararo (avlodlararo) konfliktlar. O'smirlik davrining muammolari. Avlodlararo munosabatlar. Avlodlararo munosabatlar konfliktlarining o'ziga xos jihatlari. Avlodlararo konfliktlarning nazariyasi. Ta'lim muassasalarida konfliktlar. «O'qituvchi-talaba», «ota-ona-talaba» va «talaba-talaba» konfliktlari. Avlodlararo konfliktlarning oqibatlarini. Yoshlari guruhdari orasida konfliktlar. Yoshlar guruhlarini tasnifi. Yoshlar guruhlarining zamonaviy xolati. Yoshlar guruhdari a'zolarining tipologiyasi. Guruhlararo konfliktlar sabablari. Harbiy xizmatda shaxslararo konfliktlar. Harbiy xizmatda konfliktlarning ishlash mexanizmi turlari. Qadriyatlar shaxslararo konfliktlarning asosi sifatida.

8-mavzu. Global konfliktlar

Global konfliktlar tushunchasi, mezonlari va sabablari. Global konfliktlar turlari. Jamiyat va tabiat o'rtasidagi konfliktlar, resurslar tugashi muammosi, urush va tinchlik muammolari, demografik muammolar, mamlakatlar taraqqiyotida disbalans muammosi. Rim Klubi va uning global muammolarni hal etishdagi roli.

9-mavzu. Xududiy konfliktlar

Xududiy konfliktlar, ular sub'ektlari tushunchasi, mezonlari va sabablari. Xududiy konfliktlar klassifikatsiyasi. Milliy manfaatlar

davlatlararo konfliktlar predmeti va sababi sifatida. Etnik konfliktlar. Davlat ichidagi konfliktlar.

10-mavzu. Sotsial konfliktlarni boshqarish

Konfliktlarni boshqarish amaliyotining vujudga kelishi. Konfliktlarni boshqarishning asosiy tushunchalari: profilaktika, tartibga solish, xal qilish, kelishuv. L.Krisberg va R.Darendorf bo'yicha konfliktlarni boshqarishning omillari. Konfliktlarning konstruktiv va dekonstruktiv rivojlanishi. Konflikt ishtirokchilarining tavsifi va ularning konfliktni boshqarishga ta'siri. Konfliktlarni tartibga solish usullari. Kuch ishlatish usuli bilan konfliktlarni bartaraf qilish va ushbu usulni qo'llashga majbur etuvchi omillar.

11-mavzu. Muzokaralar konfliktlarni bartaraf etish usuli sifatida

Muzokaralar umumiy strategiyasi va modellari. «O'zaro manfaatlar», «yon berish-yaqinlashish» modellari. R. Fisher va U. Yurining muzokaralarni printsiplial olib borish usuli. Konfliktlarni hal etishda uchinchi taraf ishtiroki, arbitraj, mediatorlik. Mediatorlik strategiyasi va texnikasi. Muzokaralar ishtirokchisiga talablar va psixologik muhitni tartibga solish. Muzokaralar uslubi (shiddatli, mo'tadil, savdo, xamkorlik). Muzokaralarni tashkil etish.

III.2. SEMINAR MASHG'ULOTI MAVZULARINI TAQSIMLANISHI

	Seminar mavzulari	Soati
1	Konflikt sotsiologiyasi predmeti va asosiy tushunchalari	2
2	Konfliktlarni o'rganishga asosiy yondashuvlar	4
3	Konfliktlarning harakatlantiruvchi kuchlari va sabablari	2
4	Konfliktlarni o'rganishning empirik xususiyatlari	2
5	Sotsial konfliktlar	2
6	Jamiyat turli sohalarida konfliktlarning o'ziga xosligi	4
7	Yoshlar konfliktlari	2
8	Global konfliktlar	4
9	Xududiy konfliktlar	2
10	Sotsial konfliktlarni boshqarish	4
11	Muzokaralar konfliktlarni bartaraf etish usuli sifatida	2
	Jami:	30
	Umumiy soat:	30

IV.1. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

1	Konflikt sotsial fenomen sifatida
2	Sotsial konfliktlarni tadqiq etish metodlari
3	Sotsial konfliktlar dinamikasi va motivatsiyasi
4	Guruhlararo konfliktlarni tadqiq etish metodlari
5	Oiladagi konfliktlarni tahlil qilish va boshqarish muammolari
6	Konfliktda shaxsning samarali muloqoti va ratsional xatti-xarakat

	texnologiyasi
7	Tashkilotlardagi konfliktlar.
8	Siyosiy konfliktlarning asosiy turlari: manfaat, qadriyatlar, o'xshatish va tenglashtirish asosidagi konfliktlar
9	Etnosiyosiy konfliktlarni o'ziga xos jixatlari.
10	Xalkaro siyosatda xokimiyat masalasi va uning moxiyati
11	«Nol miqdorli», «Nol miqdorsiz» konfliktlarning moxiyati
12	Boshqaruv tizimining tuzilishi va tarkibiga nisbatan konfliktlar tipologiyasi.
13	Konfliktlarni bartaraf etish: modellari, uslublari va metodlari
14	Siyosiy muzokaralar o'tkazish texnologiyasi
15	Konfliktologik tadqiqot dasturi va uning moxiyati

V. FAN O'QITILISHINING NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOM'ETENTSIYALAR)

Fanni o'zlashtirishi natijasida talaba:

✓ fan bo'yicha tizimli bilimlarga ega bo'lishi, konflikt soxasida ro'y berayotgan xodisalar va jarayonlar xaqida konfliktlar xaqidagi ta'limotlarning rivojlanish dinamikasini o'rganish, konfliktologiya va jamiyatning o'zaro faoliyatini taxlil qilish, sotsial konfliktlarni taxlil qilish, xamda ularga tashxis qo'yish ko'nikmalarini shakllantirish, konfliktologiya rivojlanishining zamonaviy muammolari, konfliktlarni eskolotsiyasi qonunlari, konfliktlarni yuzaga kelishi mexanizmlari nazariyalari va ularning formulalari, konfliktlarni boshqarish texnologiyalari xaqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi***;

✓ zo'rlik yoki urush konfliktlarini xal qilish usuli sifatida qarash stereotiplarini kamaytirish, konfliktlarda chorasiz xolatlariga tushib qolgan insonlar, tashkilotlar qanday choralar, tadbirlar, ko'rishlari mumkinligi to'g'risida nazariy-amaliy bilimlar berish, konfliktlarni boshqarish xaqida bilimga ega bulishi, zamonaviy ilmiy asoslarda ulardan xayotiy va kasbiy faoliyatida bilishi va ulardan foydalana olishi ***ko'nikmalariga ega bo'lishi***;

✓ ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ishlov berish va foydalanish usullariga ega bo'lish, o'z kasbiy faoliyatida asoslangan mustaqil qarorlarni qabul qilishni bilishi; konfliktologiyaning nazariy-metodologik asoslarini bilishi va foydalana olishi, ushbu yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, mustaqil ravishda yangi bilimlarni yaratish, o'z-o'zini takomillashtirish va ilmiy asosda o'z mexnatini tashkil qilishni bilishi, sog'lom turmush tarzini yuritish zaruriyatida ilmiy tasavvurga va ishonchga jismoniy takomillashuvi shaxslararo, hamda guruhlararo konfliktlarni o'ziga xos xususiyatlari, jamiyatdagi hamda boshqaruv soxasidagi konfliktlar kabi bilimlarni muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish malakasiga ***ega bo'lishi kerak***.

VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI

- ✓ ma'ruzalar;
- ✓ interfaol keys-stadilar;
- ✓ seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- ✓ guruhlarda ishlash;
- ✓ individual loyihalar
- ✓ jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar

VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR

Fanga ajratilgan kreditlar talabalarga har bir semestr bo'yicha nazorat turlaridan ijobiy natijalarga erishilgan taqdirda taqdim etiladi.

Fan bo'yicha talabalar bilimni baholashda oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlari qo'llaniladi. Nazorat turlari bo'yicha baholash: 5 – "a'lo", 4 – "yaxshi", 3 – "qoniqarli", 2 – "qoniqarsiz" baho mezonlarida amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat har semestrda bir marta yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Talabalar semestrlar davomida fanga ajratilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlarda muntazam, har bir mavzu bo'yicha baholanib boriladi va o'rtachalanadi. Bunda talabaning amaliy (seminar) mashg'ulot hamda mustaqil ta'lim to'shiriqlarini o'z vaqtida, to'laqonli bajarganligi, mashg'ulotlardagi faolligi inobatga olinadi.

Shuningdek, amaliy (seminar) mashg'ulot va mustaqil ta'lim to'shiriqlari bo'yicha olgan baholari oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda inobatga olinadi. Bunda har bir oraliq nazorat turi davrida olingan baholar o'rtachasi oraliq nazorat turidan olingan baho bilan **qayta o'rtachalanadi**.

O'tkazilgan oraliq nazoratlardan olingan baho **oraliq nazorat natijasi** sifatida qaydnomaga rasmiylashtiriladi.

Yakuniy nazorat turi semestrlar yakunida tasdiqlangan grafik bo'yicha yozma ish shaklida o'tkaziladi.

Oraliq (ON) va yakuniy (YaN) nazorat turlarida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb to'lganda – **5 (a'lo) baho**;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb to'lganda – **4 (yaxshi) baho**;

Talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb to'lganda – **3 (qoniqarli) baho**;

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb to'lganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

**ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA
AXBOROT MANBALARI
ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. Анцупов А.Я., Баклановский Б.С. Конфликтология и схема и получено: Учебное пособие. 2-е изд., перераб. - СПб. Питер, 2009. - 304 с.
2. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология. - М, 2001.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR:

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - Тошкент: Ўзбекистан, 2018.-466.
4. Берн Э. Игры, в которые играют люди. Люди, которые играют в игры. — М.: Университетская книга АСТ, 1999.
5. Глухова А.В. Типология политических конфликтов. - Воронеж, 1999.
6. Громова О.Н. Конфликтология. Курс лекций. - М.: Ассоциация авторов и издателей «Тандем», ЭКМОС, 2000.
7. Дарендорф Р. Элементы теории социальных конфликтов // Социологическое исследование. №5. - М., 2000.
8. Дмитриев А.В. Конфликтология. - М, 2003.
9. Джумаев Р.З. Основы конфликтологии. - Ташкент, 2000.
10. Емельянов С.М. Практикум по конфликтологии. - СПб: Питер,2001.
11. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ /Ш.М. Мирзиёев. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016. - 56 б.
12. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир рахбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йуналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.-104 б.
13. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови // Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси 07-12-2016.- Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. -48 б.
14. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017.-491 б.
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. АҚШ, 19 сентябрь 2017 йил. Халқ сўзи газетасининг 2017 йил 20 сентябрь № 189 (6883)-сони.
16. Здравомыслов А.Г. Социологический конфликт. - М., 1996.
17. Козырев Г.И. «Введение в анализ конфликтов». - М., 1999.
18. Зигерт В., Ланг Л. Руководить без конфликтов. - М.: Экономика, 1999.

19. Кармина А.С. Конфликтология. - М, 2002.
20. Конфликтология Учебник для вузов /В.П.Ратников, В.Ф.Голубь, Г.С.Лукьянов и др., Под ред. Проф. В.П.Ратникова-М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2001.
21. Мастенбрук У. Управление конфликтными ситуациями и развитие организации. - М.: Инфра-М, 1999.
22. Рыжков О. Политические конфликты. - М,2009.
23. Самыгин С.И., Столяренко Л.Д. Психология управления. Учебное пособие. - Ростов-н/Д: Феникс, 2007.
24. Сулимова Т.С. Социальная работа и конструктивное разрешение конфликтов. - М.: Ин-т практической психологии, 1996.
25. Уткин Э. А. Конфликтология. Теория и практика. - М,1998.
26. Фишер Р., Юри У. Путь к согласию или переговоры без поражения. - М.: Наука, 1999.
27. Фролов С.С Социология. - М.: Гардарики 2007. - 344 с.
28. Хербак В.Е. Конфликтные ситуации на предприятиях // — М.:«ЭКО». №11, 1999.
29. Хорни К. Ваши внутренние конфликты. - СПб.: Лань, 2001.
30. Шейнов В.П. Конфликты в нашей жизни и их разрешение. - Минск: Амалфея, 2006.

AXBOROT MANBAALARI

31. [htt':// www.socioworld.ru](http://www.socioworld.ru)
32. [htt':// www.sociologi.narod.ru](http://www.sociologi.narod.ru)
33. [htt':// www.sociolog.ru](http://www.sociolog.ru)
34. [htt'://www.isea.ru/russian/structure/acad/'hil/kurs/'hil04.htm](http://www.isea.ru/russian/structure/acad/'hil/kurs/'hil04.htm)
35. [htt'://www.ce'.tomsk.ru/sir1.html](http://www.ce'.tomsk.ru/sir1.html)
36. [htt'://www.sinor.ru/~ranger/Socis.html](http://www.sinor.ru/~ranger/Socis.html)
37. [htt'://www.nir.ru/socio/sci'ubl/socjour.htm](http://www.nir.ru/socio/sci'ubl/socjour.htm)
38. [htt'://www.hse.ru/radaev](http://www.hse.ru/radaev)
39. [htt'://www.sociograd.ru/](http://www.sociograd.ru/)

Namangan davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan:

- Fanning ishchi o'quv dasturi Ijtimoiy fanlar kafedrasining 2024-yil _____ dagi ____-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.
- Fanning ishchi o'quv dasturi Ijtimoiy fanlar fakultetining 2024-yil _____ dagi ____-sonli majlisida ma'qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.
- NamDU Kengashining 2024-yil, 7-iyuldagi 12-sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun mas'ul:

S.Z. Qozoqov - Namangan davlat universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedراسи katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Q.O. Maxkamov – NamDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti, Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (‘hD).

A.X. Abdulazizov – NamDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti, Sotsiologiya fanlari nomzodi.

NamDU o‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i
Mirzaaxmedov

X.

Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani v.v.b.

B. Mallabayev

Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri

Q. Maxkamov

Tuzuvchi

S. Qozoqov

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası

“Konflikt sotsiologiyasi” FANIDAN

TEST SAVOLLARI

“Konflikt sotsiologiyasi” FANIDAN UMUMIY TEST SAVOLLARI:

VARIANT - 1

1. Ko‘pchilik sotsiologlar shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvini qaerda boshlanadi deb hisoblaydilar?

- A.maktab
- V.oila
- S. do‘stlar davrasida
- D.mehnat jamoasida

2. Intervyu usulining turlarini aniqlang:

- A. ochiq, yopiq, yarim ochiq
- B.erkin, standart, yarim standart
- C. og‘zaki va yozma
- D.nazoratli, nazoratsiz va erkin

3. O.Kontning “3 stadiya qonuni” asaridagi bosqichlar nomi:

- A.fetishizm, monoteizm va politeizm
- B. teologik, metafizik va pozitiv
- C. teologik, monoteizm va pozitiv
- D.teologik, pozitiv va negativ

4. Sotsial norma va qadriyatlarning individ ichki dunyosiga kirishi jarayoni qanday nomlanadi?

- A.sotsial integrasiya
- B.sotsial adaptasiya
- C.sotsial interpretasiya
- D.sotsial interiorizasiya

5. Shaxs yoki sotsial guruhning ijtimoiy tizimda egallagan mavqeidan kelib chiqib amalga oshiruvchi faoliyatini ifodalovchi tushuncha – bu:

- A.sotsial status
- B.sotsial rol
- C.sotsial harakat
- C.sotsial munosabat

6. Sotsiometriya – bu:

A.katta va kichik guruhlar a’zolarini va ularning munosabatlarini miqdoriy jihatdan tahlil qilish

B.kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o‘lchovlar asosida o‘rganish

C.kichik guruhlardagi muammoli vaziyatlarni miqdoriy jihatdan tahlil qilish

D.katta guruhlarda simpatiya va antipatiya munosabatlarini aniqlash

7. Sotsial statika nimani o‘rganadi?

- A.ijtimoiy voqelikning tabiiy qonunlarini
- B.voqea va hodisalarning o‘shish va rivojlanishini
- C.ijtimoiy elementlarning muvozanatini, mavjudlik qonunlarini
- D.ijtimoiy tanazzulni

8. Kontent-analiz metodi-bu...

- A.so‘rovning bir turi
- B.kuzatish usuli metodlaridan biri
- C.hujjatlarni tahlil qilish metodlaridan biri

D.eksperimentning bir turi.

9. Sotsiologiya dastlab qanday nom bilan atalgan?

A.siyosiy arifmetika

B.tarixiy tahlil

C.sotsial falsafa

D.sotsial fizika

10. Shaxs strukturasi asosiy elementlarini ko'rsating:

A.bilim, madaniyat va faollik

B.xotira, madaniyat va faoliyat

C.dunyoqarash, xotira va madaniyat

D.madaniyat, bilim va dunyoqarash

11. Sotsiologiya fani qaysi fan negizida shakllandi?

A.psixologiya

B.matematika

C.biologiya

D. falsafa

12. Sotsiologik monitoring bu:

A.birlamchi sotsiologik ma'lumotlarni yig'uvchi, tahlil qiluvchi va axborotlarni tarqatuvchi tizim

B.jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni o'rganuvchi, tahlil qiluvchi, yechimini va nazoratini ta'minlovchi tizim

